

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA RITORIK SO‘ROQ GAPLARINING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Gulchehra Mashraf qizi Hoshimova

BuxDU Xorijiy tillar fakulteti

“Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik” yo‘nalishi magistranti

gulchehrahoshimova1991@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada o‘zbek va ingliz tillarining og‘zaki va yozma nutq janrlarida keng tarqalgan ritorik so‘roq gaplarning xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. So‘roq gaplarning turlari tahlil qilinadi va eng keng tarqalgan ritorik savollar ham muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: so‘roq gap, ritorika, ritorik savol, stilistik shakllar

STRUCTURAL AND SEMANTIC FEATURES OF RHETORICAL QUESTIONS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

ABSTRACT

This paper analyses some structural-semantic features of rhetorical questions in English and Uzbek, which are widely used in both oral and written speech. Types of questions, as well as, common rhetorical questions are reviewed.

Keywords: interrogative questions, answer-eliciting, rhetorical question, stylistic figures.

KIRISH

Kommunikativ nutq tizimida so‘roq gaplar alohida o‘rin tutadi. So‘roq gaplar so‘zlovchi uchun noma‘lum bo‘lgan haqiqatni anglashga qaratilgan savoldir. Bunday gaplar maxsus asosga qurilgan bo‘lib, alohida talaffuz qilinadi va gap oxirida so‘roq belgisi qo‘yiladi. So‘roq gaplar ko‘pincha dialogik shaklda qo‘llaniladi.

So‘roq gaplar ularda ifodalangan savol mazmuniga ko‘ra 3 turga bo‘linadi.

Sof so‘roq gaplar: Who is listening? (Kim tinglayapti?)

So‘roq-buyruq gaplar: Can you speak slowly? (Sekinroq gapirolmaysizmi?)

Ritorik so‘roq gaplar: If your friend jumped off the bridge, would you do it too?
(Agar sherigingiz o‘zini ko‘prikdan tashlasa, siz ham tashlaysizmi?)

So‘roq gaplar tizimida ritorik so‘roq gaplar ham grammatik, ham mantiqiy, ham alohida ma‘noga ega stilistik munosabatni o‘z ichiga oladi. Ritorik so‘roq gapda,

odatda, javob ham savolning ichida bo‘ladi va nutq ta’sirchanligini oshirish maqsadida stilistik vosita sifatida ishlatiladi. Bunday vazifada ishlatilganda, garchi, ritorik so‘roq gap savol shaklida bo‘lsada, hech qanday javob talab qilmaydi, lekin so‘roqda ifodalangan ma’lumotni ta’kidlash va tinglovchining roziligini olish uchun ishlatiladi. Shuning uchun ham ba’zi hollarda ritorik savollar gap oxirida berilmaydi. Ritorik so‘roq gaplar, ko‘pincha, suhbatdosh bilan suhbatni boshlash yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri javobni talab qilmasdan, so‘zlovchining muammoga e’tiborini qaratish maqsadida jalb qilish vositasi sifatida ishlatiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ritorik savollar sof so‘roq gaplarni pragmatik tushunish sifatida qaraladi.

Who did it? (Lucy, Mr.White, a father, a friend, a doctor....)

Kim qildi buni? – Lusi, Janob Wayt, ota, do‘st, shifokor.....)

Who did it? (Well, me, of course.....who else?)

Kim qildi buni? – Men, albatta, yana kim bo‘lardi?

Rohde (2006), Kaponigro va Sprouse (2007)lar ritorik savollarga haqiqiy bo‘lmagan savol sifatida qaraydi: A-haqqoniy (unbiased interrogative), B- haqiqiy bo‘lmagan savol (biased interrogative). Haqiqiy savollarda javob bilan ta’minlash ehtimoli yuqori bo‘ladi. Ritorik savollarda javob bir maromda emas, chunki u so‘zlovchi hamda tinglovchi o‘rtasidagi o‘zaro ikki tomonlama tushunchaga bog‘liq. Ritorik so‘roq gaplar va sof so‘roq gaplar shuning uchun ham pragmatik.

Sadock (1971,1974) va Han (2002) ritorik savollarni so‘roq gap sifatida emas, balki, qarama-qarshi ta’kidlash sifatida tahlil qildilar.

A: *I do not steal anything*

B: *Do I steal anything?* (No, I don’t steal anything!)

Rohde (2006) ritorik savollar so‘roq gapga o‘xshaydi, chunki ular javobni qabul qiladi, faqat ma’lum bir javobning mavjudligi ta’kidni keltirib chiqaradi.

Caponigro va Sprouse (2007) ritorik savollarni so‘roq gaplar sifatida o‘rganib ikkita juda muhim fikrga kelishdi. Birinchisi – ritorik so‘roq gaplar inkor javobdan ko‘ra ko‘prog‘ini talab qiladi; Ikkinchisi – ritorik so‘roq gaplar javob qabul qiladi, ammo bildirilgan fikr javob qabul qilmaydi.

A: *It’s understandable that Lucy adores Tim. After all, who helped him when he was in trouble?*

B: *Lucy / Nobody*

A: *After all, mina was the only one to help him when he was in trouble!*

B: *Lucy*

NATIJALAR

Garchi savol u ritorikmi yoki yo‘qligini ko‘rsatuvchi eng muhim ko‘rsatkichni o‘zida saqlasada, ba’zi savollar ritorik yoki ritorik bo‘lmagan talqinga moyil bo‘ladi. Masalan, *What time is it?* savoli deyarli barcha holatlarda javob talab qiluvchi sof so‘roq gap sifatida talqin qilinadi, holbuki, *How can a fool know what’s good for him?* kamdan-kam hollarda javob talab qiluvchi savol sifatida qaraladi. Ushbu namunalarga o‘xshamagan ko‘plab savollarni ular ritorik yoki javob talab qiluvchi sof so‘roq gaplar ekanligini osonlik bilan aniqlab olish qiyin. Bunday savollar shunga ishora qiladiki, ba’zi ritorik savollar ularning ritorik tabiatiga mos ma’lum elimentlarni o‘z ichiga oladi.

Ushbu tadqiqot natijalari ritorik so‘roq gaplar ularning sintaktik va semantik xususiyatlarini ko‘rsatuvchi elimentlardan iborat degan fikrni qo‘llab-quvvatlaydi.

MUHOKAMA

Ingliz tilidagi eng keng tarqalgan ritorik savollardan biri: **“Can’t you do anything right?”** (Qo‘lingizdan biror – bir foydali ish keladimi, o‘zi?) Ushbu gapda so‘zlovchi so‘ramayapti, balki, tinglovchi foydali ish qilishga qodirmi yoki yo‘qligini ta’kidlayapti. Ritorik so‘roq gaplar ta’kidni ifodalaganda, ko‘pincha javob berish qiyin. Shunday qilib, ritorik so‘roq gaplar salbiy ma’nodagi fikrning tasdig‘i sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, **“What have you ever done for me?”** (siz men uchun nima qilib berdingiz, yoki siz men uchun nima qilib qo‘yibsiz?) savoli **“You have not done anything for me”** (siz men uchun hech narsa qilib bermagansiz) ma’nosini anglatadi. Xuddi shunday misol U. Shekspirning “Yuliy Sezar” asarida uchraydi: Mark Entoni:

Here was a Caesar! When comes such another? (Bu yerda Yuliy Sezar bo‘lgan! Yana bunaqasi qachon keladi?)

Ushbu misoldagi ritorik so‘roq gap Yuliy Sezarning boshqalarda kamdan-kam uchraydigan qobiliyatga ega ekanligini va bunday odam yaqinda tug‘ilmasligini bildiradi.

Ritorik so‘rov og‘zaki va yozma turli janrlarda, ayniqsa, she’riyatda voqea va axborotning ma’nosini kuchaytirish uchun stilistik vosita sifatida ishlatiladi. Bunda, ko‘pincha, matnda keltirilgan savol uchun metafora shaklida qo‘llaniladi. Ushbu turdagi ritorik savol ko‘pincha “ritorik rivoyat” deb ataladi va bu savolga javob boshqa hazil bilan belgilanadi. Misol uchun,

Is the sky blue? (Osmon ko‘kmi?)

Is the sun hot? (Quyosh issiqmi?)

Is the Pope Catholic? (Papa katolikmi?)

Ba'zi ritorik so'roq gaplar ingliz tilidagi iboraviy birikmalarda o'z aksini topadi:
What's the matter with you? (Sizga nima bo'ldi? Tuppa-tuzuk edingizku?);
Don't you know any better? (Tuzukroq javobingiz yo'qmi?, Yaxshiroq javob bera olmaysizmi?);

Have you no shame? (Uyalmaysizmi? Sizda uyat yo'qmi?);

Are you crazy? (Jinnimisiz?);

How should I know? (Men qayoqdan bilay?)

Zamonaviy ingliz tilida ritorik so'roq gaplarda faol ishtirok etadigan bir qator stilistik shakllar mavjud, masalan, litota, antiteza, kulminatsiya va boshqalar. Ulardan eng keng tarqalgani litotadir. Ma'lumki, ingliz tilida inkorni faqat bitta vosita bilan ifodalash mumkin. Litota deb ataladigan stilistik shakl nutqni qo'sh inkor orqali ifodalab ritorik savol tug'diradi. Masalan:

-It is no ordinary city

XULOSA

Ushbu tahlildan olingan ma'lumotlarga tayanib xulosa qiladigan bo'lsak, ko'pgina holatlarda ritorik so'roq gaplar va standard so'roq gaplar bir xil shaklga ega va ularning ritorik savol yoki javob talab qiluvchi sof so'roq gap sifatida talqin qilinishi to'laligicha ular foydalanilgan kontekstga bog'liq.

Garchi ritorik so'roq gaplar va javob talab qiluvchi sof so'roq gaplarni bir-biridan ajratib turuvchi rasmiy farqlar mavjud bo'lmasada, ba'zi ritorik savollar ularni standard savollardan ajratib turadigan ma'lum shaklga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asier Alcazar (2017) A syntactic analysis of rhetorical questions
2. Athanasiadou, Angeliki (1991). "The discourse function of questions". Pragmatics:1.1:107-122.
3. Brian's. (2007). "Common errors in English". Washington State University
4. Burton, O. (2007) "Rhetorical questions". Brigham Young University
5. Dzamal Spago (2017). "Rhetorical questions or rhetorical uses of questions?"
6. Samigova, Kh., Khabibullayevich, A. (2020) "Rhetoric in the English and uzbek languages"